

O'QUVCHILARNI SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR ORQALI FAVQULODDA VAZIYATLARDA RATSIONAL XATTI-HARAKATLARGA TAYYORLASH

Xolmatova Guzal Islomovna

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

gozalxolmatova2@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdan tashqari ishlarning o'rni va ahamiyati yoritilib, ularni o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlash jarayoniga samarali integratsiya qilish masalalari tahlil etiladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda ratsional xatti-harakatlar, tezkor qaror qabul qilish, jamoada ishlash hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, zilzilaga tayyorgarlik mashqlari, evakuatsiya, rol o'yinlari va amaliy mashg'ulotlarning tarbiyaviy hamda pedagogik ahamiyati ochib berilib, ularning o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlashdagi roli asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar. *Sinfdan tashqari ishlar, favqulodda vaziyatlar, zilzilaga tayyorgarlik, hayot xavfsizligi, evakuatsiya mashqlari, ratsional xatti-harakatlar, o'quvchilarni tayyorlash, xavfsizlik ko'nikmalari, tarbiyaviy faoliyat, amaliy mashg'ulotlar.*

Annotation. *This article highlights the role and importance of extracurricular activities in general secondary schools and analyzes the issues of their effective integration into the process of preparing students for emergencies. This article highlights the role and importance of extracurricular activities in general secondary schools and analyzes the issues of their effective integration into the process of preparing students for emergencies. Through extracurricular activities, students are presented with opportunities to form rational behavior, quick decision-making, teamwork, and safety compliance skills. The educational and pedagogical significance of earthquake preparation exercises, evacuations, role-playing games and practical training is also revealed, on the basis of which their role in ensuring the safety of life of students is based.*

Keywords. *Extracurricular activities, emergencies, earthquake preparedness, life safety, evacuation exercises, rational behavior, student training, safety skills, educational activities, practical training.*

Аннотация. *В данной статье освещается место и значение внеклассной работы в общеобразовательных школах, анализируются вопросы эффективной их интеграции в процесс подготовки учащихся к чрезвычайным ситуациям.*

В данной статье освещается место и значение внеклассной работы в общеобразовательных школах, анализируются вопросы эффективной их интеграции в процесс подготовки учащихся к чрезвычайным ситуациям. Посредством внеклассных занятий учащимся демонстрируются возможности для формирования навыков рационального поведения, быстрого принятия решений, работы в команде, а также соблюдения правил техники безопасности. Также раскрывается воспитательное и педагогическое значение упражнений по подготовке к землетрясению, эвакуации, ролевых игр и практических занятий, обосновывается их роль в обеспечении безопасности жизнедеятельности учащихся.

Ключевые слова. *Внеурочная работа, чрезвычайные ситуации, подготовка к землетрясению, безопасность жизнедеятельности, эвакуационные упражнения, рациональное поведение, подготовка учащихся, навыки безопасности, образовательная деятельность, практические занятия.*

Kirish. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning shaxsiy, ijodiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu ishlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kasbiy jihatdan o'zini-o'zi belgilashga ko'maklashish hamda jamiyat hayotiga moslashishga qaratilgan. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar nafaqat darsni to'ldiruvchi vosita, balki o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, psixologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish jarayonida samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda ko'pincha sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda dars uslub va vositalari qo'llaniladi. Shu bilan birga, dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlar farqi ularning mazmunida, o'quvchining psixologik va jismoniy yukini hisobga olishda, shaxsiy ko'nikmalarni rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Shu sababli sinfdan tashqari ishlar rejalashtirilgan va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi, natijada o'quvchilarning rivojlanishiga maksimal hissa qo'shishi muhimdir.

Sinfdan tashqari ishlar — umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilar

saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to'garak ishlari (o'quvchilarning turli to'garaklar, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari), mustaqil ishlar (o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va sh.k. bilan mustaqil shug'ullanishi) ni ko'rsatish mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar —barkamol shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan muhim faoliyatdir. Ushbu ishlar o'quvchilarga turli nazariy va amaliy ko'nikmalarni egallash imkonini beradi, shu jumladan favqulodda vaziyatlarda ratsional va xavfsiz xatti-harakatlarni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali samarali tarzda amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar tizimi nafaqat tarbiya va bilim berishga, balki ularni yong'in, zilzila, sel, portlash kabi favqulodda holatlarda xavfsiz va tartibli harakat qilishga o'rgatishga qaratilgan.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarda bilim va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, shaxsiy va kasbiy o'zini-o'zi belgilashga yordam berish, jamiyat hayotiga moslashish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, sinfdan tashqari ishlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ O'quvchilarning turli faoliyat turlariga qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini aniqlash.
- ✓ Har bir bolaning tanlangan faoliyat sohasida rivojlanishi uchun sharoit yaratish.
- ✓ Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash imkoniyatini ta'minlash.
- ✓ Ijodiy faoliyat va qobiliyatlarni rivojlantirish.
- ✓ Maktab va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish.
- ✓ O'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash va amalda qo'llash.
- ✓ Shu tariqa, sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Sinfdan tashqari ishlar turli shakllarda tashkil etiladi:

Individual ishlar: o'quvchining mustaqil faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan, masalan, kolleksiya to'plash, texnika, musiqa, tasviriy san'at va chizmachilik bilan shug'ullanish.

To'garak ishlari: fan, san'at, sport yoki amaliy ijodiy sohalarda o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Misol uchun, sport seksiyalari, musiqa ansambllari va hunarmandchilik to'garaklari.

Ommaviy ishlar: maktab klublaridagi tadbirlar, kechalar, ko'rgazmalar, viktorinalar, ekskursiyalar va jamoaviy musobaqalar o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradi. Ommaviy ishlar, to'garak ishlari va mustaqil ishlar — favqulodda vaziyatlarda tayyorgarlikni shakllantirishda ham qo'llaniladi. Ommaviy ishlar doirasida o'quvchilar evakuatsiya mashqlari, yong'in xavfsizligi mashqlari va simulyatsiya qilingan rol o'yinlarida ishtirok etadilar, bu ularda xavfsiz yo'nalishlarni aniqlash, jamoa bilan hamkorlik qilish va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

To'garak ishlari va sport seksiyalari o'quvchilarning jismoniy barqarorligini oshiradi, tezkor harakat qilish va stressga chidamlilik ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Mustaqil ishlar esa o'quvchilarda shaxsiy mas'uliyatni rivojlantiradi, ular favqulodda vaziyatlarda o'zini boshqarish va xavfsiz harakat qilish strategiyalarini mustaqil o'rganishga imkon beradi.

Shunday qilib, sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning nafaqat ilmiy va ijodiy rivojlanishiga, balki favqulodda vaziyatlarda ratsional, xavfsiz va samarali xatti-harakat ko'rsatishga tayyor bo'lishiga ham keng imkoniyat yaratadi. Bu o'quvchilarning psixologik barqarorligi, jamoaviy hamkorlik ko'nikmalari va xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda muhim vositadir.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar favqulodda vaziyatlarda amaliy mashqlarni o'tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda ham muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, psixologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'un shakllantirishga qaratilgan:

Evakuatsiya mashqlari: maqsadi – o'quvchilarni favqulodda vaziyatda tartibli va xavfsiz chiqib ketishga o'rgatish. Mashqlar maktab binosi, sinf yoki stadionni evakuatsiya yo'laklari bilan tayyorlash, yig'ilish joylariga yetaklash va mashqdan so'ng xatoliklarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu jarayon evakuatsiya algoritmi va jamoa bilan hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Yong'in xavfsizligi mashqlari: o'quvchilar yong'in paytida xavfsiz harakat qilishni o'rganadilar, himoya vositalarini ishlatishni mashq qiladilar. Mashqlar tutun ostida harakat qilish, yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish va xavfsizlik yo'nalishlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Natijada xavfsizlik qoidalarini amalda bajarish va xavfsiz muhitni baholash ko'nikmalari rivojlanadi.

Favqulodda vaziyatlarda rol o'ynilari: o'quvchilar simulyatsiya qilingan vaziyatlarda guruh bo'lib harakat qiladi, "qutqaruvchi" va "jarohatlangan" rollarini o'ynaydi, harakat strategiyasini muhokama qiladi. Bu mashqlar psixologik barqarorlik, tezkor qaror qabul qilish va vaziyatni baholash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Zilzilaga tayyorgarlik mashqlari

Maqsad: O'quvchilarni zilzila yuz berganda tartibli, xavfsiz va tezkor harakat qilishga o'rgatish, favqulodda vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'tkazish usullari va shakllari:

Nazariy tayyorgarlik:

- ✓ Zilzilalar tushunchasi, ularning turlari va kuchi haqida ma'lumot berish.
- ✓ Zilzila vaqtida xavfsiz hududlarni aniqlash, bino ichida va tashqarida qanday harakat qilish kerakligi bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish.
- ✓ Xavfsiz harakat qilish algoritmi, jumladan, "tushish, yopilish, ushlanish" qoidalari tushuntiriladi.

Amaliy mashqlar:

Evakuatsiya mashqlari: Zilzila signalini berish orqali o'quvchilarni belgilangan yig'ilish joylariga tartibli va xavfsiz yetaklash.

Xavfsiz joyga yashirinish: Stol osti, devor yonida yoki maxsus belgilangan joylarda yashirilib, to'g'ri pozitsiyani ushlash.

Rol o'ynilari: Ba'zi o'quvchilar "jarohatlangan" rolini, boshqalar esa "qutqaruvchi" rolini o'ynaydi. Bu o'quvchilarda favqulodda vaziyatda hamkorlik va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Signal va chaqiriqlar orqali mashq: Favqulodda holatda ovozli va vizual signalga tezkor reaksiya ko'rsatish mashqlari.

Foyda va natijalari:

- ✓ O'quvchilar evakuatsiya yo'nalishlarini va xavfsiz hududlarni bilib oladi.
- ✓ Favqulodda vaziyatda stressni boshqarish va ratsional harakat qilish ko'nikmalari shakllanadi.
- ✓ Jamoa bilan hamkorlik qilish, yetakchilik va mas'uliyatni bo'lishish qobiliyatlari rivojlanadi.
- ✓ Nazariy bilimlarni amalda qo'llash orqali o'quvchilar xavfsiz xatti-harakatni odat holiga keltiradi.
- ✓ Bu mashg'ulotlar o'quvchilarning stressga chidamliligini oshiradi, o'zini boshqarish va ongli qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, favqulodda vaziyatlarda jamoaviy harakat qilish va mas'uliyatni his qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Sinfdan tashqari ishlarning pedagogik ahamiyati. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, intizom va mas'uliyatni shakllantiradi. Shu bilan birga, ular o'quvchilarning jamoaviy ishlash, o'zaro yordam berish, muloqot va hurmat ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar dars va darsdan tashqari jarayonlar o'rtasidagi uzluksizlikni ta'minlaydi. Bu o'quvchilarga dars davomida o'rgangan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, ularni amalda qo'llash imkonini beradi. Shuningdek, sinfdan tashqari tadbirlar o'quvchilarning kelajakdagi kasb tanlashiga va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim jarayonining muhim elementi bo'lib, o'quvchilarning shaxsiy, ijodiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash imkonini yaratadi, jamiyat hayotiga moslashuv va sog'lom turmush tarzini shakllantiradi. Favqulodda vaziyatlar bo'yicha mashg'ulotlar, rol o'yinlari va evakuatsiya mashqlari orqali o'quvchilar psixologik barqarorlik, tezkor qaror qabul qilish va jamoaviy mas'uliyatni o'rganadilar. Shu bilan birga, sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning barkamol shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi va ularni hayotga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.04.2023 yildagi 171-son.

2.Saidova G.E., "Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda innovatsion usullardan foydalanish" -Buxoro. Monografiya. -b.100

3.Islamovna, K. G. (2025). Preparing Elementary Students for Emergencies – As a Pedagogical Problem. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 40, 169–172. Retrieved from <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/329>

4. Xolmatova G. (2023). Dunyo zamonaviy ta'limida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishning ahamiyati. Interpretation and

Researches,1(1).извлеченоот<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/818>